

## ZAMONAVIY GLOBALLASHUV VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20199131>

**Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna**

*Namangan davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari kafedrası  
katta o'qituvchisi, PhD.*

*Gmail: [turgunoy91@gmail.com](mailto:turgunoy91@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

ushbu maqolada zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" va oliy ta'limni isloh qilishga qaratilgan davlat hujjatlariga asoslanib, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, kommunikativ kompetentlikning mohiyati va tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari asosida kommunikativ kompetentlikning ilmiy ta'riflari berilgan hamda uni rivojlantirishning amaliy yo'llari va strategik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagog va mutaxassislarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning muhimligini asoslaydi.

### **Kalit so'zlar**

kommunikativ kompetentlik, oliy ta'lim, globallashuv, raqamli transformatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik ta'lim, muloqot ko'nikmalari, Yangi O'zbekiston strategiyasi.

### **Аннотация**

В статье исследуются вопросы развития коммуникативной компетентности в системе высшего образования в условиях современной глобализации и цифровой трансформации. На основе Стратегии развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 годы и других государственных документов проанализированы теоретические основы компетентностного подхода, сущность и структура коммуникативной компетентности. С опорой на труды зарубежных и отечественных ученых даны научные определения коммуникативной компетентности, раскрыты практические пути ее формирования и стратегическое значение. Результаты исследования

подчеркивают важность развития коммуникативной компетентности при подготовке конкурентоспособных педагогических и профессиональных кадров.

### **Ключевые слова**

коммуникативная компетентность, высшее образование, глобализация, цифровая трансформация, компетентностный подход, педагогическое образование, навыки общения, Стратегия нового Узбекистана.

### **Abstract**

The article examines the issues of developing communicative competence in the higher education system in the context of modern globalization and digital transformation. Based on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026" and other state documents, the theoretical foundations of the competency-based approach, the essence and structure of communicative competence are analyzed. Drawing on the works of foreign and domestic scholars, scientific definitions of communicative competence are provided, and practical ways of its development along with its strategic importance are revealed. The research results emphasize the importance of forming communicative competence in training competitive pedagogical and professional personnel.

### **Keywords**

communicative competence, higher education, globalization, digital transformation, competency-based approach, pedagogical education, communication skills, New Uzbekistan Strategy.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida yoshlarimizning samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu qobiliyatlar talabalarining shaxsiy muvaffaqiyatga erishishlariga va ijtimoiy integratsiyaga, ularning akademik, kasbiy yutuqlarga erishishlariga bevosita o'z ta'siri ko'rsatmay qolmaydi. Talabalar bugungi kunda raqamli platformalar, xalqaro munosabatlar va zamon talablariga moslashib, turli madaniyatlar va tillarda samarali muloqot qila olishlari lozim. Bu esa ularga raqobatbardosh kadr bo'lishlari, o'z bilim va tajribalarini kengaytirishlari va samarali aloqalar o'rnatishlari uchun keng imkoniyat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni PF-60-sonli Farmoni tasdiqlandi va bu farmon "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" bo'lib unda yosh avlodni har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan, o'z mustaqil fikriga ega, qat'iy qarorlar qabul qiladigan, hayotiy nuqtayi nazarga ega, o'z madaniyatini yaxshi biladigan,

Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini har tomonlama rivojlantirish jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish nazarda tutilgan. Taraqqiyot strategiyasi ham besh yilga mo'ljallangan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy reja ishlab chiqilgan. Rejaga muvofiq jamiyatning barcha sohalari qamrab olingan bo'lib, ta'lim sohasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida ilm-fanning, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim paradigmasini o'zgartira oldi va o'quv jarayoni davomida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirdi. Zero, amaliyotda foydalanilayotgan tizimli, faoliyatli yondashuv jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775 sonli qarori 2018-yil 5-iyunda imzolandi. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro ta'lim standart talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish yuzasidan keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Yurtimizda yangidan-yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va zamonaviy ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi, pedagogik yo'nalishlar uchun istiqbolli rejalar ishlab chiqilganligi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi deya olamiz.

So'nggi o'n yillikda Yevropaning bir qancha davlatlarida va yurtimizda oliy ta'lim tizimida tubdan yangilanish jarayoni boshlandi. Ushbu islohotlarning diqqat markazida talabalar egallayotgan mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim, zarur ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari turibdi. Hozirgi davr jamiyati uchun mutlaqo yangi zamonaviy qiyofaga ega mutaxassislar zarur. Bunday mutaxassis nafaqat bilimdon va ijodiy fikrlovchi, balki izlanishga intiluvchan, ilmiy ma'lumotlarni mustaqil ravishda topa oladigan va ularni o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay oladigan shaxs bo'lishi kerak.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, oliy ta'lim tizimini isloh qilish, rivojlantirish, takomillashtirish, yangiliklarga tez moslashuvchan, zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yondashuvlaridan biri *kompetensiyaviy yondashuv* hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv va tarbiyaviy jarayonlarning bunday usullarini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan isloh qilishni talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida

egallanayotgan bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunda pedagogika fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha soha va mutaxassisliklarga, o'qitish usullari, texnika va texnologiyalariga e'tibor qaratilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ana shu pedagogik usullarni tushuna olish, amaliy faoliyatda qo'llay olish masalasi eng dolzarb muammolardan biri ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Muammo esa ushbu sohada olingan pedagogik nazariy bilimlarni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq eta olishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliy jarayonlarda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. Demak, juda ko'p o'qituvchilar va pedagoglar eskirib qolgan nazariy bilimlarga tayanayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi sifatlar kompetensiyaga ega bo'lish, kompetentli pedagog nomini olish hisoblanadi.

Kompetensiya so'zi inglizcha "competence", "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musbaqalashishga layoqatlilik" ma'nosini anglatadi.

Ilmiy pedagogik va psixologik manbalarda keltirilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o'ta murakkab, juda ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham ma'no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tumandir.

Atamaning mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda<sup>68</sup>.

"Competentia" lotinchadan tarjima qilinganda, o'zbek tilidagi ma'nosi "tajribaga ega bo'lgan", "tajribali" degan ma'noni anglatadi. Yana qo'shimcha ma'nosini to'ldiradigan bo'lsak, ma'lum bir sohada kompetentli shaxs egallagan sohasi haqida aniq fikr yurita olish va unda samarali faoliyat olib bora olishi uchun mos bilim va qobiliyatga egaligini bildiradi.

"Kompetentlilik", "kompetensiya" tushunchalari tavsiflarida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- "bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;
- shaxsning uquvi, xislatlari, fazilatlar;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi;
- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;
- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, malakalar yaxlitligi;

<sup>68</sup> <https://staff.tiame.uz/storage/users/788/articles/09qrQ7j7AnyPyreEvYDgdWQd9GvpnfT7GqMfqj8b.pdf>

- faollashgan (amaliyotga tadbiq etilgan) o'quv, bilim, tajribalar majmui;
- shaxsning maqsadli yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi".

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlanish tarixiga oid manbalarni tahlil qilinganda, uning rivojlanish tarixi shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'linadi.

**Birinchi bosqich.** 1960-1970-yillarni qamrab olib, bu bosqichda dastlab "kompetensiya" va "kompetentlik" so'zlari ilmiy adabiyotlarda uchray boshladi. Shu davrdan boshlab til o'rganish nazariyasi yo'nalishida til kompetensiyasi turlariga tegishli tadqiqotlar boshlanib D.Xayms tomonidan, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasi kiritildi.

**Ikkinchi bosqich** 1970-1990-yillar, bu davrda tilni o'rganish (ayniqsa o'z ona tili bo'lmagan) nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda kasbiy mahorat, rahbarlik qilishda, menejmentda, muloqot qilishni o'rganishda kompetensiya/kompetentlik kategoriyalari ishlatila boshlandi va "Ijtimoiy kompetensiya/kompetentlik" tushunchalarining mazmuni ishlab chiqildi. Bu davrning o'ziga xosligi shundaki, kompetentlikning boshqa ko'rinishlarida "layoqat", "tayyor bo'lmoq" kabi ta'riflarining keltirilishi, shu bilan birga, "ishonch bilan", "javobgarlik" singari psixologik sifatlarni bildiradi.

John Ravenning 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida kompetentlikka keng ta'rif beradi. Bu shunday hodisaki, "u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir..., ayrim komponentlar ko'proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari - emotsional sohaga tegishlidir. Bu komponentlar o'zini o'zi samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin" deydi. Bu esa talabalarning egallashi kerak bo'lgan eng muhim sifatlar deya olamiz. Chunki talabalar kelgusidagi faoliyati davomida bilim berish bilan birga turli vaziyatlarda o'zini boshqara olishi, muloqot jarayonida tinglovchilarni ishontira olishi, fikrlarini izchil ravishda yetkaza olishi kerak bo'ladi.

XX asrning oxirlarida tashkil etilgan ta'limga oid xalqaro kongressda J.Delor o'zining "Ta'lim: yashirin xazina" deb nomlangan ma'ruzasida "ta'limda tayanadigan to'rtta ustunni ta'riflab beradi: - bu bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni va o'zini anglashni o'rganish". Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. Jak Delor fikricha, "bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetent bo'lish nazarda tutiladiki guruhlarda ishlay olish va ish jarayonida yuzaga keladigan juda ko'p murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib ketsin".

V.Xutmaxerning umumlashtiruvchi ma'ruzasida kompetensiya tushunchasi ko'nikma, kompetentlik, qobiliyat, mahorat kabi tushunchalar bilan bir qatorda

ishlatilsada, uning mazmuni hali to'la ochib berilmaganini ta'kidlab o'tadi. Ma'ruzachining ta'kidlashicha, barcha tadqiqotchilar "kompetensiya" tushunchasi maydonida "bilamanki, nima...", dan ko'ra "bilamanki, qanday..." tushunchasiga yaqinroqdir. Haqiqatan ham, kompetensiyani faqatgina bilim yoki ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki ularni qanday qo'llashni bilish – ya'ni holatga mos faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Shuni aytish joizki, "kompetentlik" tushunchasi bilan birgalikda, uning sinonimi sifatida "malakalar bazasi" ishlatiladigan hollar ham mavjud.

**Uchinchi bosqich** 1990-yildan boshlanadi va bu davrda kompetentlikni ilmiy atama sifatida ta'limda qo'llash yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. A.K.Markovanning fikrlariga ko'ra kompetentlik muayyan insonning xarakteristikasi, kasbiy talablarga munosibligi sifatida qaraladi. Bu davrda o'qituvchi kompetentligiga tegishli bo'lgan g'oyalar L.M.Mitina, L.A.Petrovskoy, N.V.Kuzmina, L.P.Alekseva, N.S.Shabligena va boshqalar tomonidan bajarilgan. Mazkur yondashuv rivojlanishining uchinchi bosqichiga xos yana bir jihat shundan iboratki, YUNESKO materiallari va hujjatlarida ta'limda kutiladigan natijalar sifatida bir qator kompetensiyalar ajratib olinib boshlandi.

**To'rtinchi bosqich** kompetensiyaviy yondashuvni umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kasbiy ta'limni kiritish bilan bog'langan. 2006-yilning 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi. Ular:

- O'z ona tilida muloqot qilishi;
- Chet tilida muloqot qilishi;
- Matematik kompetentlik hamda fan-texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
- Raqamli kompetensiyalar;
- O'qishni o'rganish;
- Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
- Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi;
- Madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash.

Kompetensiya – talabning ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab bo'lib, talabada tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribasi hamda ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirgan tajribasi bilan belgilanadi.

V.Serikov va V.Bolotovlarning fikrlariga ko'ra, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv bu talabning bilimni emas, balki yuzaga kelgan

muammolarni hal qila olish qobiliyatini ko'rsatadi va eng birinchi darajadagi zarur qobiliyat deb baholaydi. Bizningcha, zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat muammolarni hal qilish qobiliyati, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot qobiliyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Talaba nafaqat bilimlarni amalda qo'llay olishi, balki o'z qarorlarini asoslash qobiliyatiga, jamoada samarali ishlash ko'nikmasiga va yangi bilimlarni uzluksiz o'zlashtirishga intilish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Yevgeniya Bondarevskaya va Sergey Kulnevichlarning ilmiy tadqiqot ishlarida talabalar yig'adigan kompetensiya unsurlari faqat asosiy maqsadga, pedagogik faoliyat olib borish uchun yo'naltirilishi yoki zarur bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Keltirilgan ta'rifda asosiy maqsad vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turishi inobatga olinmagan.

V.S.Yelegina va S.M.Poxlebayev tomonidan Rossiyaning "Фундаментальное исследование" jurnalining 2012-yil 3-sonida e'lon qilingan "Компетентностный подход к организации обучение студентов в педагогических вузах" ilmiy maqolasida kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, metodlari, yondoshuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad: "berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi",- deyiladi va amaliyot jarayonidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni talab qiladi. Ta'lim o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni, kompetensiyani, shaxs sifatida o'zini anglash, bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish, o'zini boshqara olish hamda faollashib borishni shakllantiradi.

Ushbu kompetensiya/kompetentlikning talabalar faoliyatiga bog'liq tomonlarini o'rgangan ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarini sanab o'tishimiz mumkin. Agarda AQSh oliy pedagogik ta'lim tizimi faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pedagogik ta'lim jarayonining asosiy maqsadlarini Valentin Pilipovskiy va Nikolay Nikandrovlarining tadqiqotlarida, AQShda o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimi bo'yicha N.I.Kustinova, V.B.Gargaylarni ko'rishimiz mumkin. Namlari keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlaridan AQSh hamda Rossiya ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitgan deyishimiz mumkin. Ushbu mavzular M.Apple, D.Armstrong, D.L.Ball, D.Barnes, F.Baumgartner, M.Cochran-Smith,

D.K.Cochan, L.Darling-Hammond, S.Feiman-Nemser, A.D.Glenn kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida batafsil yoritilgan.

B.Umarov “Biz bolalarga nimani emas, qanday o’ylash, fikr yuritishni o’rgatishimiz lozim. Vazifamiz bilim beribgina qolmay, ularga oqillikni ham o’rgatishdir. Oqillik esa, faqat bilimlar majmui emas, balki ulardan samarali foydalanish hamdir. Shu nuqtai nazardan, bolalarga dunyoni kashf qilishga va unda o’z nuqtai nazaridagi haqiqatni izlashga xalaqit bermaslik kerak. Umuman olganda, insoniyatning kelajakdagi mohiyati ham shunda”, – deb ta’kidlaydi.

XX asr oxirlarida ijtimoiylashtirish va insonning o’z hayot yo’lini tanlash masalalarini o’rgangan ko’plab rus olimlari ijtimoiylashuv jarayonlarini moslashuvchanlik nuqtayi nazaridan o’rganib, ularni individual shaxsning integratsiyasi bilan bog’lashga intilgan. Biroq, o’sha davrda bu tushunchalar yagona ma’noda qabul qilinmagan. Aksincha, mustaqil hayotiy yo’lni belgilash turli sohalarga bo’linib, axloqiy (L.I.Bojovich, A.A.Guseynov), ma’naviy (D.J.Valeev), oilaviy (N.N.Obozov, A.G.Xarchev), kasbiy (V.A.Krutetskiy, P.A.Shavir), siyosiy (A.M.Chernish), va fuqaroviy (I.S.Kon) yo’nalishlarda alohida ko’rib chiqilgan. O’zining mustaqil yo’lini belgilay olish va ijtimoiylashuv jarayonida ma’lum faoliyatga tegishli kommunikatsiyalarni qidirish shunday bir tushunchaga olib keldiki, unda “shaxsning o’z yo’lini belgilash jarayoni hayot faoliyatining barcha jabhalarida yuzaga keladi va u shaxsning mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligiga mos ravishda shakllanishiga yo’naltirilgan”. Shu nuqtai nazardan, talaba rivojlanish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, uning tashabbuskoriga aylanishi zarur. Talabaning o’z hayot yo’lini tanlash qobiliyati, o’zini anglash va rivojlantirish ko’nikmalari zamon talablariga javob beradi. Shunday ekan, kompetensiyaviy yondashuv ijtimoiy o’z yo’lini belgilash nazariyasi va amaliyotining turli faoliyat sohaslarini samarali birlashtirish imkonini beradi.

Kompetensiya tushunchasiga turli yondashuvlar mavjudligi sababli uning yagona aniq ta’rifini ishlab chiqish oson emas. Mavjud lug’atlarda, xususan, “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” hamda “O’zbek tilining izohli lug’ati” da berilgan ta’riflar (ma’lum sohadagi bilim va tajriba) “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini cheklangan doirada izohlaydi. Ushbu atamaning mazmun va mohiyati turli mutaxassislar – pedagoglar, psixologlar, iqtisodchilar va metodistlar tomonidan har xil talqin qilinadi.

S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G’ulomova va boshqalar “Amaliy pedagogik fan sifatida ona tili o’qitish metodikasi boshlang’ich ta’lim standarti belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya’ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma hamda malakalarini

rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi". Yuqoridagi fikrlar asosida rus tilida ta'lim beriladigan guruhlariga o'zbek tilini o'qitishda mazkur metodikadan foydalanish talabalarning kommunikativ malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash hamda ijtimoiy muloqotda mustaqil va samarali ishtirok etishga olib keladi.

Rus olimi N.I.Mayorova "bu bilan bog'liq bo'lgan muammo psixolingvistika nuqtai nazaridan izohlaydi: "kompetensiya" tushunchasi ramziy ma'noga ega bo'lib, haqiqatdan mavjud obyektlar bilan bog'liq emas va shuning uchun ularni aslida ko'rsatib bo'lmaydi. Boshqa tomondan, ushbu tushuncha har qanday bilim sohasi uchun universal, uning yagona, mutlaqo to'g'ri ta'rifini yaratish deyarli mumkin emas", - deb ta'riflaydi.

Ushbu tushunchalarni ilmiy-nazariy asosda farqlashga oid ayrim konstruktiv yondashuvlar B.I.Hasan tomonidan o'z asarlarida bayon etilgan: "*Kompetensiya* - bu da'vo qilingan yoki erishish uchun maqsad etib belgilangan sifat, *kompetentlik* - bu ma'lum bir shaxs xohlagan yoki zimmasiga yuklangandan keyin erishgan qiymatlik". Jiddiy farqlarni esa A.V. Xutorskoyning quyidagi ta'riflarida ko'rish mumkin: "Kompetensiya - bu shaxsning muayyan predmet yoki jarayonlarga nisbatan uzviy bog'liq bo'lgan va samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan xususiyatlari (bilim, ko'nikma, malaka va usullar) majmuasidir. Kompetentlik esa insonning faoliyat obyekti bilan bog'liq shaxsiy munosabatini aks ettiruvchi va ma'lum bir kompetensiyaga ega ekanligini ifodalovchi tushunchadir".

A.V. Xutorskoy kompetentlik tushunchasiga ta'rif berar ekan, shaxsning nafaqat kasbiy tajribasi, balki uning bilim doirasi kengligini ham nazarda tutadi. Binobarin, kompetentlikka ega bo'lish deganda, ma'lum bilim va qobiliyatlarga ega bo'lish yoki muayyan vaziyatdan xabardorlik tushunilsa, bu ta'rifdan tashqari, kompetentlik shaxsning ma'lum vaziyatlarni boshqarish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatini, nafaqat ma'lum bir sohada nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki ularni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olish, muammolarni hal qilish va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va doimiy o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu esa, shaxsga har qanday sharoitda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

G.K.Selevko "Kompetensiya" tushunchasini quyidagicha talqin qiladi: "bu tushuncha ko'pincha metodlarni bilish, faoliyat vositalaridan foydalanish qobiliyati, berilgan vazifalarni bajarish salohiyati, o'quvchining tayyorgarlik darajasi hamda ta'lim natijalarida namoyon bo'ladigan "qobiliyat" kabi jihatlarni ifodalaydi". Shuningdek, kompetensiya atrof-muhitni o'zgartirishga qaratilgan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning birikmasi sifatida ham qaraladi.

Rus tilidagi “-ost” suffiksi o‘zbek tilida “-lik” shaklida ifodalanib, ma’lum bir sifatning o‘zlashganlik darajasini bildiradi. “Kompetentlik” tushunchasi esa shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida shakllangan umumiy qobiliyatlari, to‘plangan bilim va tajribaga asoslangan holda faoliyatga tayyorligini aks ettiruvchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi.

A. Nurmanov o‘zining dissertatsiya ishida bu tushunchaga quyidagi ta’rifni keltirgan: “Kommunikativ kompetentsiya – muloqot subyektlarining o‘zaro bir-birini tushunish, shaxsiy rivojlanish va shaxs sifatida kamol topishiga qaratilgan o‘zaro munosabatlari bo‘lib, muloqotning muayyan vaziyatiga muvofiq usullari va texnikalarini adekvat qo‘llash natijasi”.

A. Ashurov tomonidan mazkur tushuncha tadqiqot ishlarida quyidagicha ta’riflangan: “muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyati”.

Sh. Pulatov esa “odamlar bilan o‘zaro samimiy munosabat o‘rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishontira bilish, yordam berish, kayfiyatni ko‘tarish, ixtiyoriy-majburiy ergashtirish” degan fikr bildirdi.

Sh. Bulbekbayeva “bilimlarni nazariy anglashdan yuksak nutq madaniyatini egallash darajasigacha yetkazish, bilim, ko‘nikma, malakalarni nutqiy faoliyatda qo‘llash qobiliyati” deb ta’rifladi.

“Kompetentsiya” atamasi natijalilik, muvaffaqiyatlilik va yutuqlilik kabi tushunchalar bilan tavsiflangan bo‘lsa-da, bu yondashuv uning mohiyatini to‘liq yoritishga yetarli emas, deb hisoblaymiz. “Kompetentlik” esa semantik jihatdan “daraja” va “nisbat munosabat”ni talab qiladigan tushuncha sifatida qaraladi. Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, biz “kommunikativ kompetentlik” tushunchasini quyidagicha ta’riflaymiz: kommunikativ kompetentlik – bu turli darajadagi ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish jarayonlari orqali shakllanadigan, har bir shaxsning hayotiy va ishbilarmonlik munosabatlarida malakali faoliyat ko‘rsatish va nutq qobiliyatini o‘z ichiga olgan ko‘p darajali reflektiv sifatdir.

Shu nuqtai nazardan, ijodiy qobiliyat va yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lmagan talabalar ham doimiy rag‘bat va tizimli amaliy mashg‘ulotlar orqali muayyan faoliyat turlarida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Shuning uchun ta’limning har bir bosqichida yoshlarimizni bilimli va raqobatbardoshligini oshirish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglar nafaqat nazariy bilim, amaliy malaka va kasbiy ko‘nikmalarni egallashlari, balki o‘z kasbiga sadoqat bilan yondashishlari, pedagogik ta’limning asosiy vazifalarini chuqur anglashlari va ularga mas’uliyat bilan yondashishlari muhimdir. Kompetentlikning asosiy

turlarini o'zida jamlagan kadrlarni yetishtirish muhim va bugungi kunda juda katta ahamiyat kasb etmoqdi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki bo'lajak pedagog va mutaxassislarni zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh va ijodiy shaxslar sifatida tayyorlashning asosiy shartidir. Buning uchun an'anaviy ta'lim usullarini tubdan isloh etish, amaliy mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalar va loyihaviy faoliyatni keng joriy etish, o'qituvchilarning o'zlarida ham yuqori kommunikativ kompetentlikni shakllantirish zarur.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali biz nafaqat bilimdon, balki o'z bilim va tajribasini samarali qo'llay oladigan, jamiyatda faol ishtirok etadigan, Yangi O'zbekiston qurilishiga munosib hissa qo'shadigan yosh avlodni tarbiyalaymiz. Bu esa mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik investitsiya hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvar "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
4. Ashurov A. Texnika oliy ta'lim muassasalari bakalavr talabalari kommunikativ chet tili kompetentsiyasining shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – B. 12.
5. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в подростковом возрасте. Л.И.Божович. – М.: Просвещение, 1998. – 464 с. – С. 43.
6. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: От идеи к образовательной программы. Педагогика. 2003. № 3.
7. Бондоревская Е.В., Кулневич С.В. Педагогика. 2004. № 10.

8. Bulbekbayeva Sh.B. Ona tilini davlat tili bilan kommunikativ kognitiv asosda qiyosiy o'rgatish (ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida) 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qozoq tili) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand. 2019. – B. 11.
9. Делор Ж. Образование: сокрытое сокровище. – ЮНЕСКО, 1996. – 46 с. – С.5.
10. Елегина В.С., Похлебаев С.М. Компетентносный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе. Фундаментальное исследование. 2012 № 3.
11. Hutmacher, Walo. Key competencies for Europe [Text] / Walo Hutmacher // Report of the Symposium Berne, Switzerland March 27-30, 1996. Council for Cultural Co-operation (CDCC) a //Secondary Education for Europe Strasbourg. - 1997. - С. 11-21.
12. Иванов Д.А. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятию, инструментарий: учеб.-метод. пособие / Д.А.Иванов, К.Г.Митрофанов, О.В.Соколова. – М.: АПК и ППРО, 2005. – 101 с. – С. 11.
13. Коммуникативная компетенция и компетентность: ретроспективный анализ и современные реалии (В.В. Яценко, И.О. Найдис, журнал "Компетентность", N 1, февраль 2020 г.)
14. Lutfedinova R.X. Produktiv o'qish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Monografiya. Namangan:2023.B. 12-15.
15. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Ishonchli hamkor nashriyoti, 2021. –11 b.
16. Майорова Н.И. Формирование информационно-коммуникативной компетентности младших школьников посредством групповой работы: Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.– Ульяновск. – 2019. – С. 30.
17. Nurmanov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida). 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta'limda menejment (pedagogika fanlari). doktorlik dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2017. – B. 16.
18. ОВЛАДЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ИНОЯЗЫЧНЫМ ОБЩЕНИЕМ НА ОСНОВЕ УЧЕТА ЕГО ИНТОНАЦИОННО-СЕМАНТИ

ЧЕСКОЙ СОСТАВЛЯЮЩЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ  
БАКАЛАВРОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

19. Коммуникативная компетенция и компетентность: ретроспективный анализ и современные реалии (В.В. Яценко, И.О. Найдис, журнал "Компетентность", N 1, февраль 2020 г.)

20. Pulatov Sh. Ta'limda menejment yoxud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. O'quvmetodik qo'llanma. – T.: 2017. – B. 63.

21. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/29/NamDU-ARM-13890> Produktiv o'qish vositasida booshlang'ich sinf o'quvchOXvped1.pdf 7-bet.

22. <https://staff.tiame.uz/storage/users/788/articles/09qrQ7j7AnyPyreEvYDgdWQd9GvpnfT7GqMfqj8b.pdf>

23. <https://staff.tiame.uz/storage/users/788/articles/09qrQ7j7AnyPyreEvYDgdWQd9GvpnfT7GqMfqj8b.pdf>

24. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/29/NamDU-ARM-13890> Produktiv\_oqish vositasida booshlangich sinf o'quvch OXvped1.pdf